

KASBGA YO‘NALTIRISH JARAYONIDA O‘QUVCHILARNING SHAXSIY MAS’ULIYATINI OSHIRISH

Matnazarov Ametjon O‘rinbayevich

Qoraqalpog‘iston Respublikasi To‘rtko‘l tumani MMTB tasarrufidagi 42-umumta‘lim maktabi amaliyotchi psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada kasbga yo‘naltirish jarayonida o‘quvchilarning shaxsiy mas‘uliyatini oshirishning psixologik-pedagogik asoslari yoritilgan. Shuningdek, kasb tanlashda mas‘uliyat hissining ahamiyati, unga ta‘sir etuvchi omillar hamda maktab psixologi, pedagoglar va ota-onalarning bu boradagi vazifalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: kasbga yo‘naltirish, shaxsiy mas‘uliyat, kasb tanlash, kasbiy o‘zlikni anglash, o‘quvchi shaxsi, kasbiy qiziqish, motivatsiya, maktab psixologi, kasbiy rivojlanish, ta‘lim.

KIRISH

Kasb tanlash inson hayotidagi eng muhim qarorlardan biri hisoblanadi. Ushbu tanlov nafaqat kelajakdagi mehnat faoliyatini, balki insonning hayot tarzi, ijtimoiy mavqei va shaxsiy rivojlanishini ham belgilab beradi. Shu sababli kasbga yo‘naltirish jarayonida o‘quvchilarda shaxsiy mas‘uliyat hissini shakllantirish va rivojlantirish muhim pedagogik hamda psixologik vazifa sanaladi. Shaxsiy mas‘uliyat insonning o‘z qarorlari, harakatlari va ularning natijalari uchun javobgarlikni his etishidir. Kasb tanlash jarayonida mas‘uliyat hissi shakllangan o‘quvchi o‘z qiziqishlari, qobiliyatlari va imkoniyatlarini chuqur tahlil qiladi, turli variantlarni baholaydi hamda ongli ravishda qaror qabul qiladi. Bu esa kelajakda kasbiy muvaffaqiyatga erishish ehtimolini oshiradi.

Bugungi kunda ayrim o‘quvchilar kasb tanlashda ota-onalar, qarindoshlar yoki tengdoshlar ta‘siriga haddan tashqari berilib ketadilar. Natijada tanlangan kasb ularning qiziqish va imkoniyatlariga mos kelmay qolishi mumkin. Bunday holatlar o‘quvchilarda kasbiy qoniqmaslik, motivatsiyaning pasayishi va o‘z imkoniyatlarini to‘liq namoyon eta olmaslik kabi muammolarni keltirib chiqaradi. Shu bois kasb tanlashda o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va shaxsiy mas‘uliyatini rivojlantirish zarur. Kasbga yo‘naltirish jarayonida o‘quvchilarning o‘zini anglash darajasini oshirish muhim ahamiyatga ega. O‘quvchi o‘z qobiliyatlari, qiziqishlari, xarakter xususiyatlari va hayotiy maqsadlarini anglagan sari kasbiy tanlovga nisbatan mas‘uliyatliroq yondasha boshlaydi. Bu borada psixologik diagnostika, suhbatlar, treninglar va kasbiy maslahatlar samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Maktab amaliyotchi psixologining

faoliyati o'quvchilarda shaxsiy mas'uliyatni shakllantirishda alohida o'rin tutadi. Psixolog turli metodikalar yordamida o'quvchilarning kasbiy moyilliklarini aniqlaydi, ularga kasblar olami haqida ma'lumot beradi va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga ko'maklashadi. Ayniqsa, kasbiy rejalashtirishga oid treninglar o'quvchilarning kelajak faoliyati uchun javobgarlik hissini kuchaytiradi.

Pedagoglarning ham bu jarayondagi roli katta. O'qituvchilar o'quvchilarda mehnatsevarlik, intizomlilik, maqsadga intilish va tashabbuskorlik kabi sifatlarni shakllantirish orqali ularning mas'uliyat hissini rivojlantiradilar. Dars jarayonida mustaqil topshiriqlar, loyihalar va ijodiy ishlarni tashkil etish o'quvchilarning o'z faoliyatiga javobgarlik bilan yondashishiga yordam beradi. Ota-onalar ham farzandlarining kasbiy shakllanishida muhim o'rin egallaydilar. Ular farzandining qiziqish va qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlashi, uning fikrini hurmat qilishi hamda kasb tanlashda mustaqil qaror qabul qilishiga imkon yaratishi zarur. Ota-onalarning haddan tashqari bosimi yoki o'z istaklarini farzandiga singdirishga urinishlari mas'uliyat hissining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Kasbga yo'naltirish ishlarida zamonaviy kasblar va mehnat bozori talablari haqida ma'lumot berish ham muhimdir. O'quvchilar tanlayotgan kasbining mazmuni, istiqbollari va jamiyatdagi o'rni haqida to'liq tasavvurga ega bo'lsalar, ular o'z tanlovlariga nisbatan mas'uliyat bilan yondashadilar. Shuningdek, kasb egalari bilan uchrashuvlar, ekskursiyalar, kasb haftaliklari va amaliy seminarlar o'quvchilarning kasbiy dunyoqarashini kengaytiradi. Bunday tadbirlar yoshlarning o'z oldiga aniq maqsad qo'yishi va tanlagan yo'nalishi uchun javobgarlikni his etishiga yordam beradi.

Kasbga yo'naltirish jarayonida o'quvchilarning shaxsiy mas'uliyatini oshirish samaradorlikning muhim ko'rsatkichidir. O'quvchi kasb tanlash o'z kelajagi uchun muhim qaror ekanligini anglagan sari bu jarayonga jiddiy yondashadi. Mas'uliyat hissi o'quvchining tanlovini puxta va ongli bo'lishini ta'minlaydi. Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirish samaradorligini oshirish uzluksiz takomillashtirib boriladigan pedagogik jarayon sifatida tashkil etiladi. Ushbu jarayon doimiy tahlil, moslashuv va rivojlanishni talab etadi hamda o'quvchilarning kasbiy kelajagini ongli ravishda shakllantirishga xizmat qiladi.

4. O'quvchilarni kasbga yo'naltirishda psixologik xizmat, maktab, texnikumlar, mahalla yettiligi va ishlab chiqarish hamkorligi.

Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish samaradorligini ta'minlash ko'p tarmoqli va tizimli hamkorlikni talab etadi. Zamonaviy ta'lim sharoitida kasb tanlash jarayoni faqat maktab doirasida amalga oshiriladigan faoliyat emas, balki turli ijtimoiy institutlarning o'zaro uyg'un hamkorligiga asoslangan murakkab pedagogik jarayon sifatida qaraladi.

Shu nuqtai nazardan psixologik xizmat, maktab, texnikumlar, mahalla yettiligi va ishlab chiqarish subyektlari o'rtasidagi hamkorlik o'quvchilarni ongli kasb tanlashga tayyorlashning muhim sharti hisoblanadi. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish jarayonida psixologik xizmatning roli alohida ahamiyat kasb etadi. Psixologik xizmat o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari, moyilliklari, temperamenti va psixologik holatini aniqlash orqali kasbiy yo'naltirish jarayoniga ilmiy asos yaratadi. Psixolog tomonidan olib boriladigan diagnostik ishlar o'quvchining qaysi faoliyat turiga ko'proq mos kelishini aniqlashga xizmat qiladi. Bu esa kasb tanlashda subyektivlik va tasodifiylikni kamaytiradi.

Psixologik xizmat doirasida kasbiy maslahatlar muhim yo'nalish hisoblanadi. Kasbiy maslahatlar orqali o'quvchilarga o'z qobiliyatlari va imkoniyatlari haqida tushuncha beriladi, ularning ichki qarama-qarshiliklari va shubhalari kamaytiriladi. Psixolog o'quvchining ichki ehtiyojlari va tashqi imkoniyatlarini uyg'unlashtirishga yordam beruvchi maslahatchi sifatida faoliyat yuritadi. Bu jarayon o'quvchilarda o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi. O'quvchilarni kasbga yo'naltirishda maktabning markaziy muvofiqlashtiruvchi roli muhim hisoblanadi. Maktab kasbga yo'naltirish bo'yicha barcha faoliyatlarni rejalashtiruvchi va tashkil etuvchi asosiy muassasa sifatida maydonga chiqadi. Sinf rahbarlari, fan o'qituvchilari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha mas'ullar o'quvchilarning qiziqishlarini aniqlash, kasbiy axborot berish va yo'naltirish ishlarida faol ishtirok etadi. Maktabda kasbga yo'naltirish jarayonida ta'lim mazmunining kasbiy yo'naltirilganligi muhim omil hisoblanadi. Fanlar mazmunida kasblar bilan bog'liq real misollar, amaliy vaziyatlar va kasbiy faoliyat elementlarining aks etishi o'quvchilarda bilimlarning hayotiy ahamiyatini anglashga yordam beradi. Bu holat o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi va kasb tanlashga tayyorlaydi. O'quvchilarni kasbga yo'naltirishda texnikumlar bilan hamkorlik muhim strategik yo'nalish hisoblanadi. Texnikumlar o'quvchilarga kasbiy ta'limning amaliy jihatlari, kasb-hunar egallash imkoniyatlari va mehnat bozoriga chiqish yo'llari haqida real ma'lumot beradi. Texnikumlar bilan hamkorlik doirasida tashkil etiladigan tanishtiruv ekskursiyalari, ochiq eshiklar kunlari va uchrashuvlar o'quvchilarning kasblar haqidagi tasavvurlarini kengaytiradi. Texnikumlar bilan hamkorlik orqali kasbiy ta'lim va umumiy o'rta ta'lim o'rtasidagi uzviylik ta'minlanadi. O'quvchilar maktabdan keyingi ta'lim yo'nalishlarini ongli ravishda tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu jarayon o'quvchilarning o'z kelajagini rejalashtirish ko'nikmalarini rivojlantiradi va noto'g'ri tanlovlar ehtimolini kamaytiradi.

O'quvchilarni kasbga yo'naltirish jarayonida mahalla yettiligi bilan hamkorlik muhim ijtimoiy resurs sifatida namoyon bo'ladi. Mahalla yettiligi tarkibidagi mas'ullar o'quvchilarning ijtimoiy muhiti, oilaviy sharoiti va tarbiyaviy holatini yaxshi bilganligi sababli kasbga yo'naltirishda muhim axborot manbai bo'lib

xizmat qiladi. Ushbu hamkorlik o'quvchilarning kasb tanlash jarayonini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlaydi.

Mahalla yettiligi orqali ota-onalar bilan tizimli ishlash imkoniyati kengayadi. Ota-onalar o'quvchilarning kasb tanlash jarayonida muhim ta'sir kuchiga ega bo'lgani sababli ularning ongli va mas'uliyatli yondashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Mahalla orqali olib boriladigan tushuntirish va maslahat ishlari ota-onalarning pedagogik savodxonligini oshiradi. O'quvchilarni kasbga yo'naltirishda ishlab chiqarish korxonalarini bilan hamkorlik kasbiy yo'naltirishning amaliy asosini mustahkamlaydi. Ishlab chiqarish bilan hamkorlik o'quvchilarga real mehnat sharoitlari, kasbiy jarayonlar va ish muhitini bevosita ko'rish imkonini beradi. Bu holat o'quvchilarning kasblar haqidagi tasavvurlarini real va aniq shakllantiradi.

Ishlab chiqarish korxonalarini bilan hamkorlik doirasida kasbiy uchrashuvlar va amaliy tanishtiruvlar tashkil etilishi samarali usul hisoblanadi. Mutaxassislar bilan uchrashuvlar o'quvchilarga kasbiy faoliyatning ijobiy va murakkab jihatlari haqida to'liq tasavvur beradi. Bu uchrashuvlar o'quvchilarning kasb tanlashga bo'lgan munosabatini jiddiylashtiradi. O'quvchilarni kasbga yo'naltirishda psixologik xizmat, maktab, texnikumlar, mahalla va ishlab chiqarish o'rtasidagi hamkorlik tizimli yondashuv asosida amalga oshirilgandagina samarali bo'ladi. Tizimli yondashuv barcha subyektlarning vazifalari va mas'uliyatlarini aniq belgilashni talab etadi. Bu holat kasbga yo'naltirish jarayonining uzluksizligini ta'minlaydi. Mazkur hamkorlik doirasida axborot almashinuvi muhim ahamiyatga ega. Psixologik xulosalar, pedagogik kuzatuvlar va ijtimoiy ma'lumotlar o'zaro muvofiqlashtirilganda o'quvchining kasbiy portreti aniq shakllanadi. Axborot almashinuvi kasbga yo'naltirish ishlarini individual va maqsadli tashkil etishga yordam beradi.

O'quvchilarni kasbga yo'naltirishda hamkorlik asosida mas'uliyatni bo'lishish muhim prinsip hisoblanadi. Har bir subyekt o'z vakolatlari doirasida faoliyat yuritganda kasbga yo'naltirish ishlari samaradorligi oshadi. Psixolog – diagnostika va maslahat, maktab – pedagogik yo'naltirish, texnikum – kasbiy ta'lim imkoniyatlari, mahalla – ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ishlab chiqarish – amaliy tajriba manbai sifatida faoliyat olib boradi. Mazkur hamkorlik orqali o'quvchilarning kasbiy motivatsiyasi kuchayadi. O'quvchi kasb tanlash jarayonida yolg'iz emasligini, turli mutaxassislar va tashkilotlar tomonidan qo'llab-quvvatlanayotganini his qiladi. Bu holat o'quvchilarda o'z kelajagi uchun mas'uliyat hissini oshiradi.

O'quvchilarni kasbga yo'naltirishda hamkorlik ijtimoiy tenglik va imkoniyatlar tengligini ta'minlashga ham xizmat qiladi. Turli ijtimoiy sharoitda yashovchi o'quvchilar uchun kasbiy axborot va imkoniyatlarning ochiqligi ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biridir. Hamkorlik orqali barcha o'quvchilar uchun teng sharoit yaratiladi.

Psixologik xizmat, maktab, texnikumlar, mahalla yettiligi va ishlab chiqarish hamkorligi o'quvchilarning ongli kasb tanlashiga yo'naltirilgan yagona mexanizm sifatida faoliyat yuritadi. Ushbu mexanizm o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlari, jamiyat ehtiyojlari va mehnat bozori talablari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi. Mazkur hamkorlik asosida tashkil etilgan kasbga yo'naltirish ishlari ta'lim jarayonining amaliy va ijtimoiy ahamiyatini oshiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. O'quvchilar kasb tanlashni hayotiy muhim qaror sifatida angelay boshlaydi va unga ongli yondashadi.

O'quvchilarni kasbga yo'naltirishda psixologik xizmat, maktab, texnikumlar, mahalla yettiligi va ishlab chiqarish hamkorligi uzluksiz rivojlanib boruvchi pedagogik tizim sifatida qaraladi. Ushbu tizim o'quvchilarning kasbiy kelajagini ongli ravishda shakllantirishga xizmat qiladi va jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shadigan kadrlar tayyorlashga zamin yaratadi. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish jarayonida hamkorlikning samaradorligini oshirishda yagona rejalashtirish va muvofiqlashtirish mexanizmi muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir subyekt – psixologik xizmat, maktab, texnikum, mahalla yettiligi va ishlab chiqarish vakillari – o'z faoliyatini umumiy maqsadlar asosida rejalashtirganda kasbga yo'naltirish ishlari uzviylik kasb etadi. Yagona rejalashtirish o'quvchilar bilan olib boriladigan ishlarning takrorlanishini kamaytiradi va resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi.

Kasbga yo'naltirishda psixologik-pedagogik konsiliumlarni tashkil etish samarali tashkiliy shakl hisoblanadi. Konsiliumlar davomida psixologlar, sinf rahbarlari va fan o'qituvchilari o'quvchining rivojlanish xususiyatlari, qiziqishlari va muammolari yuzasidan fikr almashadi. Ushbu hamkorlik orqali o'quvchining kasbiy yo'nalishi bo'yicha yanada aniq va asosli tavsiyalar ishlab chiqiladi. O'quvchilarni kasbga yo'naltirishda kasbiy marshrutlarni ishlab chiqish muhim metodik yondashuv hisoblanadi. Kasbiy marshrut o'quvchining hozirgi tayyorgarlik darajasi, qiziqishlari va kelajakdagi rejalari asosida tuziladi. Bu marshrut o'quvchiga qaysi fanlarga ko'proq e'tibor qaratish, qaysi ta'lim muassasalariga yo'nalish olish va qanday ko'nikmalarni rivojlantirish zarurligini ko'rsatib beradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, kasbga yo'naltirish jarayonida o'quvchilarning shaxsiy mas'uliyatini oshirish ularning ongli va to'g'ri kasb tanlashiga xizmat qiladi. O'z imkoniyatlari va qiziqishlarini chuqur anglagan, mustaqil fikrlay oladigan va qarorlari uchun javobgarlikni his qiladigan yoshlar kelajakda kasbiy faoliyatda yuqori natijalarga erishadilar. Maktab psixologi, pedagoglar va ota-onalarning hamkorligi esa ushbu jarayonning samaradorligini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI :

- G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
- Davletshin M.G. Pedagogik psixologiya. – Toshkent, 2020.

- Nishonova Z.T. Yosh davrlari psixologiyasi. – Toshkent, 2019.
- Karimova V.M. Kasb psixologiyasi. – Toshkent, 2019.
- Klimov E.A. Psixologiya professionalnogo samoopredeleniya. – Moskva, 2018.
- Shoumarov G‘.B. Psixologik xizmat asoslari. – Toshkent, 2018.
- O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.

